# O`QUVCHILARNI DARSGA BO`LGAN QIZIQISHINI INTERFAOL METODLAR ORQALI OSHIRISH

Ibragimova Maryamxon G`ulomovna
QDPI o‘qituvchisi
Tel: 90 565-77-66 e-mail: ibragimovamaryamxon1@gmail.com

Mamasodiqova Nodiraxon Safarali qizi
QDPI talabasi

**Annotatsiya**:
Ushbu ma’ruzada mamlakatda ta’lim sohasidagi isloxotlarni amalga oshirish jarayonida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** oliy ta’lim, fan, ishlanmalar, innovatsiya, innovatsion rivojlantirish, integratsiya, rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, texnika, texnologiya ta’lim tizimi, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim islohotlari.

**Аннотация**:
Данный доклад посвещон вопросам эффективного использования инновационных подходов в сфере реформы образования в стране.

**Ключевые слова:** высшее образование, наука, разработка, инноватция, инноватционное развитие, интегратция, развитие, сотцыальное развитие, техника, технология, система образования, инноватсионные подходы, педагогические технологии, образователные реформы.

**Abstract**
This article focuses on the effective use of innovative approaches in the field of education reform in the country.

**Keywords**: higher education, science, processing, innovation, innovative development, integration, development, social development, technics, technology, educational system, innovative approaches, pedagogical technologies, educational reforms.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta’limni isloh qilish, darslarni milliy tarbiya asosida olib borish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Davlat ta’lim standartida belgilangan milliy-madaniy meroslarimizni, ajdodlardan-avlodlarga o‘tib

kelayotgan qadriyatlarimizni, xalq hayotini asl holicha namoyish etish, undan faxrlanishni yosh avlodga o‘rgatish va ularning ma’naviy ongini shakllantirish lozim.

Biz bilamizki, ta’lim jarayonining oldida turgan asosiy vazifalar o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishdan iborat. Lekin, ta’lim jarayonini oldida turgan yana bir vazifa borki, bu masalaga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Bu o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash va qiziqtirish masalasidir.

Maktab o’quvchilar shaxsini, ma’naviyatini, dunyoqarashini davr talabi darajasida tarbiyalash va rivojlantirish, eng avvalo, oiladan boshlanadi, maktabda esa davom ettiriladi. Shunga ko’ra yosh avlodni o’zini o’rab turgan atrof-muhitga, tabiatga nisbatan to’g’ri munosabatda bo’lishni tarbiyalab borish, ongiga singdirish jarayonida mehnatga, kasb-hunarga tayyorlash biz pedagoglarning oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ta’lim-tarbiya ishlarini har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshirishi, ta’limning hamma uchun tengligini ta’minlashi, o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda fukarolik tuyg‘usi, oila va davlat oldida mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mustaqil bilim olish va o‘zlarini har tomonlama rivojlantirish uchun yukori darajada qulay sharoitlarni yaratishi lozim. Agar bunday sharoitlar yaratilmasa, uzluksiz ta’lim tizimidagi majburiy bosqich bo‘lgan maktab ta’limini muvaffaqiyatli deb e’tirof etib bo‘lmaydi. Mazkur vazifalarni hal etish umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini innovatsion texnologiyalar asosida yanada yuqori bosqichga ko‘tarishni taqozo etadi.

O‘quvchilarga kasb tarbiyasini amalga oshirish uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining kasbiy intilishini bilishi va hisobga olishi, ana shu intilishni kuchaytirishda unga yordam berishi lozim. Murabbiy esa har doim tarbiyalanuvchining istagidan va bu istakka erishish uchun qanday kuch-g‘ayrat sarflanayotganidan xabardor bo‘lishi kerak.Kasb tarbiyasida o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlashning shakllari alohida o‘rin tutadi. Bunda har bir o‘quvchining shaxsiy fazilatlari va imkoniyatlariga juda muvofiq mashg‘ulotlarni topish zarur.

« MEHNAT FAXRIYSI» VA « YALQOV» O’YINI

O’yinning maqsadi: Maktab o’quvchilarida kasbiy o’zligini belgilovchi axloqiy va fuqorolik poztsiyalarini aniqlashtirish, kasbiy rejalarini ancha sifatli tuzish ko’nikmasini shakllantirish. O’yin «Shaxsiy kasbiy reja» mavzusi bilan o’zaro bog’liq holda tashkil etish mumkin.

O’yinni o’tkazish shartlari:

O’yin 10-15 kishidan iborat 8-9 sinif o’quvchilari uchun mo’ljallangan.

O’yinni amalgam oshirish uchun 20-30 daqiqa ajratiladi. O’yinning asosiy ishtirokchilari uchun dastur tayorlanadi.

O’yinni o’tkazish tartibi:

O’yinng tayorlov bosqichi: o’quvchilarni kasbiy rejaning tuzilishi bilan qisqacha tanishtirishdan iborat. O’yinni “Odam. Mehnat. Kasb” kursi mavzularini o’tib bo’lgach amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1-bosqich. O’yinni mavzusini e’lon qilishdan oldin bosh rolga sinfdan ikkita o’quvchi tanlab olinadi. Tanlab olingan o’quvchilar aqlli, zukko, quvnov va sinfning etakchilari bo’lishi lozim. O’yin nomi e’lon qilingach, boshlovchi tanlab olingan o’quvchilardan “Mehnat faxriysi” va “YAlqov”rollarini taqsimlab olishni taklif etadi.

2-bosqich. Sinf o’yinning umumiy qoidasi bilan tanishtiriladi: Yo’riqnoma: Biz 2050 yilda yashayapmiz deb tasavvur qiling. Sizlar-o’quvchilar, men esa sizning sinf rahbaringizman. Hozir bizga mehmon sifatida g’aroyib insonlar, biri uzoq umr ko’rgan va o’z davrida ko’plab ishlarni amalga oshirgan “Mehnat faxriysi hamda ikkinchisi, “dangasa” tashrif qiladilar.

Biz har xil taqdir egalari borligini bilishimiz kerak. Bu taqdirlarni to’g’ri baholashga o’rganishimiz asosiy vazifamizdir. Hozir qariya bilan yalqov hayot yo’llari haqida o’ylab, so’ngra taqdirlari haqida qisqacha qilib sizga hikoya qilib, sizlarni qiziqtirgan savollaringizga javob beradilar.

3-bosqich. “Mehnat faxriysi” va “YAlqov” 3-5daqiqaga sinf tashqarisiga hayot yo’llari va o’quvchilarni savollariga javob berishga tayyorgarlik uchun chiqarib yuboriladi. Boshlovchi ularga yordam sifatida yozma yo’riqnomalarni taqdim etadi (ilovalarga qaralsin).

Boshlovchi ular tayyorgarlik ko’rgunga qadar o’quvchilarga mehmonlar uchun hayotidagi muhim voqealar, ajoyib xotiralari, ularning sevimli mashg’ulotlari, aynan qanday qilib kasb tanlaganlari, agar yana imkon bo’lsa hayotlarini shunday davom ettirarmidilar va shunga o’xshash qiziqarli savollar tayyorlash taklifini beradi. SHuningdek, boshlovchi o’quvchilarni savollarni berishda qo’l ko’tarib hurmat va xushmuomalalik bilan murojaat etish lozimligini tushuntiradi..

Boshlovchi har bir o’quvchi bittadan savol tayyorlamasdan turib, o’yinning faollashtiruvchi bosqichiga o’tishni taklif etmaydi.

4-bosqich. Boshlovchi “Mehnat faxriysi” va “YAlqov”ni sinfga taklif qiladi. Sinf ularni qarsaklar bilan qarshi oladilar.

Ularning har ikkisi ham qisqacha qilib, hayotlari haqida so’zlab boshlaganda ularni uyalmasdan, erkinroq harakat qilishlari yoki kuldirib yubormasligi uchinchi sinf chetrog’idagi bo’sh joyda o’tirishi kerak.

5-bosqich. Boshlovchi sinf oldidagi o’z o’rniga o’ltirib oladi va o’quvchilarni mehmonlarga savol berishlarini taklif etadi. Agar savollar faqat bir kishiga berilaversa, o’qituvchi vaziyatni o’nglash uchun sinfning kimga kam savol berilayotganligi haqida murojaat qiladi. E’tiborni kam savol berilayotgan mehmonga qaratadi.

6-bosqich. O’yinning nihoyasida o’quvchilar mehmonlarga faol ishtiroklari uchun tashakkur bildirishi lozim.

O'yinning muhokamasi

Ayrim hollarda o'yin vaqtidayoq savol-javob tarzda boshlanib ketadi. Agar savol javoblarda "mehmon"lar tomonidan berilgan ziddiyatli javob o'quvchilarning muhokamasiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Aslida qat'iy muhokama "Mehnat faxriysi"ning kasbiy rejasi bo'yicha erishgan yutuqlari yoki "YAlqov" tomonidan rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirilmaganligi muhokakama qilinadi. SHuningdek, sinfdan kimning rolni yaxshi ijro etganligini baholash so'raladi. Boshlovchi haqiqiy "YAlqov" timsolini tasavvur qilish kerakligini e'tiborga olishi lozim. SHunday bo'lsa-da, o'quvchilarga oddiy insondan dangasaning qanday farq qilishini izohlab berishlari kerak.

O'yinning tashxis etish imkoniyati

O'yin o'quvchilarning qobiliyatlarini ularning shaxsiy rejalari orqali baholashga imkon beradi. O'yin o'quvchilarning mehnatga munosabatlarini aniqlashga ham ko'maaklashadi.

O'yinda uchraydigan o'ziga xos qiyinchiliklar

Ishtirokchilar tanqidiy fikr va mulohazalari bilan "Mehnat faxriysi va yalqov"ni manzilga kuzatishlariga to'g'ri kelishi mumkin. Agar o'quvchilar tomonidan o'rtoqlarining ijro etgan roliga nisbatan hurmatsizlik munosabati tug'iladigan bo'lsa, u holda ularni keksa kishilarni hurmat qilishga charishi va sinfdagilarga tanbeh berishiga to'g'ri keladi.

Agar bolalar diqqat va etiborni ko'proq "YAlqovga" qaratishsalar, uning ijrosiga qiziqish bilan qarasalar, ishonchli deb qarasalari boshlovchi "Mehnat faxriysiga" ochiq-oydin yordam bermasligi kerak. O'yin muhokamasidan oldin "Mehnat faxriys"ining kamchiliklariga oydinlik kiritishimiz lozim, "YAlqov"ga esa o'z qobilyati bilan 75 yillik hayotini yanada qiziqarliroq va mazmunliroq kechishi mumkinligini agar mehnatkashroq bulganingda deya uqtirishi kerak.

O'yinni rivojlantirish istiqbollari

"Mehnat faxriysi" va "YAlqov" o'z hikoyalarida hayotda uchragan aniq "taqdir" egalaridan namuna sifatida foydalanishi mumkin. O'quvchilarning muhokamasidan oldin sinfda "Mehnat faxriysi" va "YAlqov"ga ularning ishtiroklari xususida alohida-alohida qisqacha xat yozish taklif etiladi. Xatlar og'zaki hisobga olib qo'yiladi. So'ngra "Mehnat faxriysi" va "YAlqov"dan o'yin ularga nima berganligi haqida yozib berishlari so'raladi.

Bu o'yinni ikkita alohida "Mehnat faxriysi" va "YAlqov" o'yinlairga ham ajratish mumkin. O'yin esa umumiy o'yin qoidasi tartib-qoidalariga mos tarzda o'tkaziladi.

Bunda bosh ijrochi murakkab rolda bo'ladi, shuning uchun boshlovchidan murakkab vaziyatlarda o'yinni mohirona olib borishi talab etiladi.

1-ILOVA.

"Mehnat faxriysi" uchun yo'riqnoma

Voqealar 2050 yilda sodir bo'lsa. Bu vaqtda siz taxminan 75 yoshlardagi qariyasiz. Endi mehnat faxriysi sifatida hurmat va e'zoz yuzasidan maktabga taklif qilishdi. Sizning asosiy

vazifangiz bolalarga hayotiy tajribangizdan kelib chiqqan holda, haqiqiy baxtga faqat halol mehnat qilib erishish mumkinlgiga ishotirshingiz lozim.

Bolalarga hayotingizni qisqacha hikoya qilib bering:

-Mehnat foliyatingizni qaerdan boshlaganligingiz haqida.

-Hayot yo'lingizni asosiy boskichlari haqida.

-Hayotigizning qiyin va quvonchli damlari haqida.

-Siz mehnat folyatingiz davomida erishgan yutuqlaringiz va rasmiy olgan rag'batlaringiz haqida. Iloji boricha hikoyangizni bolalarga haqiqatga yaqinroq qilib gapiringki, bunga ular ishonch hosil qilsinlar.

Asosiy talab: hikoyangizni juda qisqa so'zlab berishingiz kerak ( hikoya uchun 3-4 daqiqa beriladi). Hikoyangiz tugashi bilanoq ishtirokchilarning har qanday savoliga javob berishga tayor turing.

OMAD TILAYMIZ !

YAna qo'shimchasi tarzda «Mehnat faxriysi»dan muhim, maksadli, anik rejalari to'g'risida so'rashingiz mumkin, lekin bunga uni majbur qilish shart emas.

2-ILOVA

«YALQOV» uchun yo'riqnomasi

Agar voqealar 2050 yillarga to'g'gri kelsa, demak sizning yoshingiz taxminan 75 da. Aytaylik sizni o'ziga xos inson sifatida o'quvchilar bilan uchrashuvga taklif etishdi. Siz faxr bilan o'quvchilar qarshisida «eksponat» emas, balki haqiqiy baxtli yashagan inson (boshqalardan kam bo'lmagan) turganligini isbotlashingiz kerak. .

Marhamat qilib, bolalarga o'zingiz haqingizda so'zlab bering:

-Qanday o'qiganligingiz haqida.

-Etuklik davringizni nimadan boshlaganligingiz haqida.

-Hayotigizning muhim o'rin tutgan bosqichlari haqida.

-Hayotigizdagi eng qiyin va eng quvonchli damlar haqida.

-Nimalarga erishganingiz haqida.

Faqat, sizdan iltimos hikoyangizni qisqa qilib, 3 yoki 4 daqiqa ichida so'zlab bering. Hikoyangiz, bolalarning har qanday savollariga javob berishgiz kerak.

OMAD TILAYMIZ !

Xulosa urnida shuni aytish mumkunki, uyinlar asosida tashkil etiladigan darslar o'quv mashg'ulotlarining faol shakli hisoblanib, bunday o'quv jarayonida muayyan voqelik faol tarzda modellashtiriladi. Bunday mashg'ulotlarning asosiy maqsadi — o'yinlar holatini vujudga keltirish orqali o'quvchilarda ob'ektiv voqelikka nisbatan hissiy munosabatni tarkib toptirishdan iborat.

**Adabiyotlar:**

1.G'ulomovna, I. M. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS EFFECT ON THE QUALITY OF EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 138-142.

2. G'ulomovna, I. M. (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Open Access Repository, 9(11), 143-146.

3. Ibragimova, M. (2016). ROL VNEUROCHNIX ZANYATIY. Ucheniy XXI veka, 55

4,G'ulomovna, I. M. (2023). Ilg'or Zamonaviy Pedagogik Texnologiyalarni Amaliyotda QoLlash. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 185-190.

5.G'ulomovna, I. M. (2022). PRIORITY DIRECTIONS OF THE SCIENCE OF PROFESSIONAL GUIDELINES.

6.Maryam, I., & Mukhlisa, U. The Use of Interactive Methods in the Orientation of Students to Entrepreneurial Activity. JournalNX, 7(03), 223-226.

7. Ibragimova, M., Usmonova, M., & Yusufxodjaeva, F. (2022). This article discusses the idea that preparing students for work at the current stage of education is one of the most important issues in the education and upbringing of the younger generation. Texnologik ta'limni innovatsion tashkil etish. Obщestvo i innovatsii, 3(5/S), 153-157

8. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

9. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

10. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

1 Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

2 Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.

3 Ziroat, Azizova. "CONCEPTUAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL PROTECTION." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.5 (2022): 404-410.

4 Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.

5 Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.

6 Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.

7 Nargiza, Yunusalieva. "SOCIAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS AND DEVELOPMENT OF VALUES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 300-305.

8 Abduhafizovna, Melikuziyeva Mavluda, and Yigitaliev Mirzoxid. "Ways to increase the legal knowledge of primary school students." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 124-130.

9 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1370-1374.

10 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "" GENERAL PEDAGOGY" SCIENCE PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1365-1369.

11 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1370-1374.

12 Tolipova, O. I. "DEVELOPING STUDENT CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL PROBLEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.06 (2022): 58-61.

13 Botirova, M., S. Mirxayitova, and O. Tolipova. "PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE KERATIVENESS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS."

14 Ikromovna, Tolipova Ozoda. "Formation of creativity characteristics in students of higher education organization based on CTEAM educational technology design method." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 348-351.

15 OI, Tolipova. "APPROACHES TO THE STUDY AND UNDERSTANDING OF CREATIVITY TODAY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1319-1321.

16 Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

Ravshanbek, Jumaboyev. "CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.4 (2022): 304-309.

1.Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1584-1590.

2.Исроилов, Ш. Ш. "РОЛЬ КОМАНДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ИГРОКА." Экономика и социум 3-1 (2021): 583-587.

3.Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "" GENERAL PEDAGOGY" SCIENCE PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1365-1369.

4. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "USING THE FINNISH EDUCATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1415-1420.

5. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "The process of development of professional and cognitive activity of students." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 267-268.

6. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THE ROLE OF ACTIVE LEARNING METHODS IN INCREASING THE LEARNING ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN INNOVATIVE EDUCATIONAL CONDITIONS." Conferencea (2022): 49-52.

7. Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THE IMPORTANCE OF INCENTIVENESS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENT ACTIVITIES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.07 (2022): 68-71.

Anvarovna, Djurabaeva Ziroat. "THE ROLE OF FATHER AND MOTHER IN RAISING A GIRL." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 854-857.

Anvarovna, Djurabaeva Ziroat. "METHODS AND MEANS OF TEACHING." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 877-880.

Rakhimberdieva, Dzhuraboeva Ziroat. "Moral education in pedagogy." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 260-263.